Tadqiqot.uz

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 10 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 10

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 10

ТОШКЕНТ-2026

ЎТМИШГА НАЗАР | ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ | LOOK TO THE PAST
№10 (2026) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2026-10

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик, Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адҳам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc), Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc), Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбобоевич
Тарих фанлари доктори (DSc) Шаҳрисабз далат педагогика институти

Ғоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Қарши давлат техника университети

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Қарши давлат университети

Маҳкамова Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc), Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc), Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор, Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc), Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc), Доғистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогока университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент, Азербайджон давлат иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Гулистон давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент, Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Наманган давлат университети

Хакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор, Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор, Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Жиззах давлат педагогика университети

Юсупов Ахмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доценти Urganch davlat universiteti

Тиллахжаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робиддинович
тарих фанлари номзоди, доцент, Наманган давлат университети

Тўхтабаев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доценти Ўзбекистон Миллий университети

Хасанова Нодира Ибрагимовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доценти, Денов тадбиркорлик ва педагогика институти

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Jizzax davlat pedagogika universiteti

Абдуносирова Озодахон Ботиржон қизи
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Фарғона давлат университети

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Миллий университети

Page Maker | Верстка | Са ,ифаловчи: Xurshid Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Laziz Alimardonov
YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA MA’NAVIY TEXNOLOGIYALARNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI……5

2. Doniyor Jumaniyozov
XIV–XV ASRLARDA XORAZMNING SAVDO TIZIMIDAGI O‘RNI: SHAHARLAR, KARVON YO‘LLARI VA NUMIZMATIK MANBALAR TAHLILI……11

3. Nilufar Djurayeva
O‘ZBEKISTONDA SOVET DAVRI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY FAOLLASHUVIGA DOIR DAVLAT SIYOSATI: TARIXIY EVOLYUTSIYA VA QIYOSIY TAHLIL……17

4. Baxtiyor Mirkomilov
BADIIY QADRIYATLAR – MILLIY BOYLIK VA JAHON DURDONALARI SIFATIDA……30

5. Murod Raxmatov
AHMAD ZAKI VALIDIY TO‘G‘ONNING XORIJDAGI ILMIY FAOLIYATI……39

6. Nilufar Raxmatova
GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLARNI MILLIY G‘OYA, MA’NAVIYAT VA TARIXIY MEROS AN’ANASIDA TARBIYALASH TAMOYILLARI……46

7. Raxmatjon Saotboyev
XVIII–XX ASR BOSHLARIDA MARKAZIY OSIYO XONLIKLARINING SIYOSIY - BOSHQARUV TIZIMI VA TASHQI SIYOSIY OMILLAR TA’SIRIDAGI O‘ZGARISHLAR…53

8. Ikromjon Umarov
XX ASR BIRINCHI CHORAGIDA SURXON-SHEROBOD VOHASIDA SUG‘ORISH INSHOOTLARI VA SUVDAN FOYDALANISHNING AN’ANAVIY SHAKLLARI……..58

9. Ra’no Xatamova
O‘ZBEKISTONDA XIX-XXI ASR GILAMDO‘ZLIK TARIXINING MANBASHUNOSLIGI…65

10. Raxim Xudoyberdiyev
TERMIZ VA CHAG‘ONIYON HUDUDLARIDA SIRLANGAN KERAMIKANING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI……70

11. Муродилла Ҳайдаров
ОКТЯБР ТЎНТАРИШИ: БОЛЬШЕВИКЛАРНИНГ СОЦИАЛ ТАЖРИБАСИ ВА ҲАРАКАТЛАНТИРУВЧИ КУЧЛАР НИСБАТИ……76

12. Озоджон Қувондиқов
ЎЗБЕКИСТОН ВА ГЕРМАНИЯ ЎРТАСИДАГИ ХАЛҚ ДИПЛОМАТИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КОНРАД АДЕНАУЭР ЖАМҒАРМАСИНИНГ ЎРНИ……85

JOURNAL OF LOOK TO THE PAST
ЎТМИШГА НАЗАР | ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ISSN: 2181-9599
www.tadqiqot.uz

Baxtiyor Mirkomilov,
JDPU professori, tarix fanlari nomzodi

BADIIY QADRIYATLAR – MILLIY BOYLIK VA JAHON DURDONALARI SIFATIDA

For citation: Bakhtiyor Mirkomilov. ARTISTIC VALUES AS NATIONAL WEALTH AND MASTERPIECES OF WORLD CULTURE. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 10.

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.23674240

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada badiiy qadriyatlarning milliy boylik va jahon sivilizatsiyasining bebaho durdonalari sifatidagi o‘rni va ahamiyati tahlil etilgan. Unda badiiy ijod namunalarining xalqning tarixiy xotirasi, milliy o‘zligi, ma’naviy dunyoqarashi va estetik tafakkurini shakllantirishdagi roli yoritilgan. Shuningdek, milliy adabiyot, tasviriy san’at, me’morchilik, musiqa, xalq amaliy san’ati va boshqa badiiy meros namunalarining umuminsoniy qadriyatlar tizimidagi o‘rni ochib berilgan. Maqolada badiiy qadriyatlarni asrab-avaylash, ilmiy o‘rganish, targ‘ib etish va kelajak avlodlarga yetkazish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Milliy badiiy merosning jahon madaniy makoniga integratsiyalashuvi, turli xalqlar madaniyatlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni rivojlantirishdagi ahamiyati ham tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari badiiy qadriyatlar nafaqat muayyan xalqning milliy boyligi, balki insoniyatning umumiy ma’naviy-estetik merosi ekanligini asoslashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: badiiy qadriyatlar, milliy boylik, ma’naviy meros, madaniyat, san’at, adabiyot, estetik tafakkur, tarixiy xotira, milliy o‘zlik, jahon madaniyati, umuminsoniy qadriyatlar.

Бахтиёр Миркомилов,
профессор Джизакского государственного
педагогического университета, кандидат исторических наук.

ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ЦЕННОСТИ КАК НАЦИОНАЛЬНОЕ БОГАТСТВО И ШЕДЕВРЫ МИРОВОЙ КУЛЬТУРЫ

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются место и значение художественных ценностей как национального богатства и бесценных сокровищ мировой цивилизации. Освещается роль произведений художественного творчества в формировании исторической памяти народа, национального самосознания, духовного мировоззрения и эстетического мышления. Особое внимание уделяется месту национальной литературы, изобразительного искусства, архитектуры, музыки, народно-прикладного искусства и других образцов художественного наследия в системе общечеловеческих ценностей. В статье также рассматриваются вопросы сохранения, научного изучения, популяризации художественных ценностей и их передачи будущим поколениям. Анализируется значение интеграции национального художественного наследия в мировое культурное пространство, а также его роль в развитии взаимных культурных связей между различными народами. Результаты исследования служат

обоснованию положения о том, что художественные ценности являются не только национальным достоянием определённого народа, но и общим духовно-эстетическим наследием человечества.

Ключевые слова: художественные ценности, национальное богатство, духовное наследие, культура, искусство, литература, эстетическое мышление, историческая память, национальная идентичность, мировая культура, общечеловеческие ценности.

Bakhtiyor Mirkomilov,
Professor at Jizzakh State Pedagogical University,
Candidate of Historical Sciences

ARTISTIC VALUES AS NATIONAL WEALTH AND MASTERPIECES OF WORLD CULTURE

ABSTRACT

This article analyzes the role and significance of artistic values as national wealth and priceless treasures of world civilization. It highlights the role of works of artistic creativity in shaping the historical memory, national identity, spiritual worldview, and aesthetic thinking of a people. Particular attention is paid to the place of national literature, fine arts, architecture, music, folk applied arts, and other examples of artistic heritage within the system of universal human values. The article also examines the issues of preserving, scientifically studying, promoting, and transmitting artistic values to future generations. The significance of integrating national artistic heritage into the global cultural space and its role in developing cultural interaction among different peoples are also analyzed. The findings of the study contribute to substantiating the view that artistic values are not only the national heritage of a particular people but also the common spiritual and aesthetic heritage of humanity.

Index Terms: artistic values, national wealth, spiritual heritage, culture, art, literature, aesthetic thinking, historical memory, national identity, world culture, universal human values.

Dolzarbligi:

Bugungi globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda milliy madaniyat va ma’naviy merosni asrab-avaylash, uni chuqur o‘rganish hamda kelajak avlodlarga yetkazish masalasi alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti, milliy o‘zligi, ma’naviy dunyoqarashi va estetik tafakkuri, avvalo, uning asrlar davomida yaratgan badiiy qadriyatlari orqali namoyon bo‘ladi. Shu ma’noda badiiy qadriyatlar muayyan xalqning nafaqat madaniy merosi, balki uning tarixiy xotirasi va milliy o‘zligini ifodalovchi muhim ma’naviy boylik hisoblanadi.

Badiiy qadriyatlar tarkibiga adabiyot, tasviriy san’at, me’morchilik, musiqa, teatr, xalq amaliy san’ati, hunarmandchilik va boshqa ijodiy faoliyat mahsullari kiradi. Ular xalqning hayot tarzi, dunyoqarashi, urf-odatlari, an’analari, orzu-intilishlari va estetik qarashlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Shu bois bunday qadriyatlarni o‘rganish orqali nafaqat san’at va madaniyat tarixini, balki jamiyatning ijtimoiy-ma’naviy taraqqiyot jarayonlarini ham chuqurroq anglash imkoniyati yaratiladi.

Mavzuning dolzarbligi, ayniqsa, globallashuv sharoitida turli xalqlar madaniyatlari o‘rtasidagi aloqalar kengayib borayotgani bilan ham belgilanadi. Bir tomondan, jahon madaniyatining eng ilg‘or yutuqlarini o‘zlashtirish uchun keng imkoniyatlar yuzaga kelayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ayrim milliy madaniy xususiyatlarning unutilishi yoki ommaviy madaniyat ta’sirida zaiflashishi ehtimoli mavjud. Bunday sharoitda milliy badiiy merosni asrab-avaylash, uni ilmiy jihatdan tadqiq etish va yosh avlod ongiga singdirish muhim vazifalardan biridir.

O‘zbekiston hududida qadimdan shakllangan va rivojlangan badiiy-madaniy meros jahon sivilizatsiyasining tarkibiy qismi sifatida alohida ahamiyatga ega. Qadimiy me’moriy obidalar, qo‘lyozmalar, miniatyura san’ati, xalq amaliy san’ati namunalari, musiqa va maqom an’analari,

mumtoz adabiyot hamda boshqa san’at turlari xalqimizning yuksak badiiy tafakkurini namoyon etadi. Ushbu merosni milliy boylik sifatida o‘rganish bilan bir qatorda, uning jahon madaniyati taraqqiyotidagi o‘rnini ilmiy asosda yoritish ham muhimdir.

Shuningdek, badiiy qadriyatlarning tarbiyaviy imkoniyatlari mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi. Badiiy meros yosh avlodda tarixiy xotira, milliy g‘urur, vatanparvarlik, go‘zallikni anglash, estetik did va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat kabi fazilatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Shu sababli ta’lim jarayonida milliy va jahon badiiy merosining namunalaridan samarali foydalanish yoshlarning ma’naviy-intellektual rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Badiiy qadriyatlarning milliy boylikdan jahon durdonalarigacha bo‘lgan mazmuniy va tarixiy-madaniy ahamiyatini o‘rganish turli xalqlar o‘rtasidagi madaniy muloqotni rivojlantirish uchun ham muhimdir. Chunki muayyan xalq tomonidan yaratilgan noyob san’at asari o‘zining milliy xususiyatlarini saqlab qolgan holda, boshqa xalqlar uchun ham umumiy insoniy ma’no va estetik qiymat kasb etishi mumkin. Demak, milliy badiiy merosni jahon madaniyati kontekstida tadqiq etish milliylik va umuminsoniylikning o‘zaro uyg‘unligini ochib berishga imkon yaratadi.

Shu nuqtayi nazardan, **“Badiiy qadriyatlar — milliy boylik va jahon durdonalari sifatida”** mavzusini tadqiq etish bugungi kunda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur mavzu orqali badiiy qadriyatlarning tarixiy ildizlari, milliy o‘zlikni shakllantirishdagi o‘rni, ma’naviy-tarbiyaviy imkoniyatlari hamda jahon madaniy merosidagi mavqeyini kompleks ravishda tahlil qilish mumkin.

1. Mavzuning o‘rganilganlik darajasi.

Badiiy qadriyatlar, madaniy meros va san’atning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni masalalari falsafa, tarix, madaniyatshunoslik, san’atshunoslik, adabiyotshunoslik va estetika fanlari doirasida keng o‘rganilgan. Mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarda badiiy ijodning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni, san’atning estetik va tarbiyaviy funksiyalari, milliy madaniyatning shakllanishi hamda madaniy merosni saqlash masalalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Sharq va Markaziy Osiyo tafakkuri tarixida badiiy-estetik qadriyatlarning mohiyati Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy singari mutafakkirlar merosida turli jihatlardan o‘z aksini topgan. Ularning asarlarida inson kamoloti, go‘zallik, ezgulik, ilm-ma’rifat, axloq va san’atning jamiyat hayotidagi ahamiyati haqida muhim nazariy qarashlar ilgari surilgan. Ayniqsa, Alisher Navoiy ijodida milliy badiiy tafakkur, insonparvarlik va estetik qadriyatlarning yuksak namunalari mujassamlashgan.

O‘zbekistonda milliy madaniy meros va badiiy qadriyatlarni o‘rganish masalalari jadid ma’rifatparvarlari ijodida ham muhim o‘rin egallaydi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Cho‘lpon kabi ma’rifatparvarlarning asarlarida milliy madaniyatni rivojlantirish, xalqning ma’naviy saviyasini yuksaltirish, san’at va adabiyotning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish masalalari ilgari surilgan.

XX asr va mustaqillik davrida O‘zbekistonning moddiy va nomoddiy madaniy merosi, xalq amaliy san’ati, me’moriy yodgorliklari, musiqa va adabiyot tarixi, milliy san’at an’analari bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Ushbu tadqiqotlarda milliy badiiy merosning tarixiy ildizlari, uning o‘ziga xos xususiyatlari, rivojlanish bosqichlari va jahon madaniyatidagi o‘rni turli ilmiy yo‘nalishlar asosida yoritilgan.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarning aksariyatida badiiy qadriyatlarning alohida turlari — adabiyot, me’morchilik, musiqa, tasviriy san’at yoki xalq amaliy san’ati doirasida o‘rganilganini ko‘rish mumkin. Badiiy qadriyatlarni yaxlit tizim sifatida, bir tomondan milliy boylik, ikkinchi tomondan esa jahon sivilizatsiyasining umumiy ma’naviy-estetik merosi sifatida qiyosiy va kompleks tadqiq etish masalasi esa alohida ilmiy yondashuvni talab etadi. Mazkur maqolaning asosiy ilmiy yo‘nalishi ham aynan shu jihatga qaratilgan.

2. Tadqiqot natijalari:

Talabalarga jahon tarixini o‘rgatish jarayonida nafaqat barcha mamlakatlar va davrlar umumiy madaniyati, balki ularning badiiy qadriyatlari milliy boylik va jaxon durdonalari sifatida, xususan, milliy va jahon san’atida mislsiz qimmatga ega bo‘lgan hamda nodir asarlarga aylangan yuksak badiiy rangtasvir asarlariga qiziqishni rivojlantirish zarur.

Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilar quyidagilarni o‘rganib chiqishlari maqsadga muvofiq, deb o‘ylaymiz,yani:

badiiy qadriyatlar mohiyati, ularning asosiy belgilarini (badiiy asar asosiy elementlarining aniq tarixiy hamda estetik ideallar bilan o‘zaro bog‘liqligi);

badiiy qadriyatlarning milliy boylik va jahon durdonalari sifatidagi qimmati va funksional ahamiyatini;

yuksak badiiy rangtasvir asarlarni baholash mezonlarini(go‘zallik, ko‘tarinkilik, badiiylik);

talabalarda badiiy qadriyatlarga qiziqishni rivojlantirish maqsadlarida rangtasvir asarlarini(Renessans davri);

yuksak badiiy qadriyatlar qatoriga kiruvchi tasviriy san’atning nodir asarlarini idrok etish, o‘zlashtirish, baholash algoritmini

Bo‘lajak o‘qituvchilarning individual rejalar asosida mustaqil ta’lim olishlarida quyidagi manbalar muhim ahamiyat kasb etadi .

Bo‘lajak o‘qituvchilarning mustaqil ta’lim olishlariga yordam beruvchi manbalar



Tadqiqot mohiyatini aniqroq ifodalash maqsadida qadriyat, uning xususiyatlari, belgilari tahlilini keltirib o‘tamiz.

Falsafiy lug‘atda qadriyat tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: “Qadriyat falsafiy va sotsiologik tushuncha. U, birinchidan, bir ob’ektning ijobiy va salbiy qimmatini, ikkinchidan, ijtimoiy ongning normativ belgilovchi-baholovchi jihatini ifoda etadi” .

Faylasuf olim E.Yusupovning fikricha, qadriyat – bu inson yoki jamiyatning u yoki bu ehtiyojini qondiradigan va ular manfaatiga xizmat qiladigan moddiy va ma’naviy ehtiyoj va manfaatdir. Umuman, qadriyatlar jamiyat hayotining tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllangan va rivojlangan o‘tmishda, hozirgi kunda va kelajakda ham ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy taraqqiyotga ta’sir etadigan, kishilar ongiga singib, ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy va ma’naviy boylikdir [1,9].

Pedagog olim Sh.Mardonov tushunchaning mohiyatini quyidagicha izohlaydi: “...qadriyatlar shaxsga ilmiy-nazariy bilimlarni berish, unda yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash, uning har tomonlama barkamol bo‘lib voyaga yetishida muhim ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga ega bo‘lgan, shuningdek, o‘ziga xos ahamiyat kasb etuvchi ob’ektiv va sub’ektiv omillar majmuasidir” [2,4-5].

Ayrim mualliflar tomonidan esa ushbu tushuncha insonga xos bo‘lgan eng oliy ma’naviy-axloqiy sifatlar majmui sifatida talqin etiladi. Chunonchi, pedagog olima M.Inomova tomonidan

olib borilgan tadqiqotda “qadriyat” tushunchasining sharxi quyidagicha talqin etiladi: “Qadriyatlar deganda, jamiyat uchun ahamiyatli bo‘lgan millat, elat va ijtimoiy guruxlarning manfaatlari va maqsadlari yo‘lida xizmat qiladigan erkinlik, ijtimoiy adolat, ma’rifat, go‘zallik, halollik, burchga sadoqat singari fazilatlar yig‘indisini tushunamiz” [3, 38]

Fikrimizcha, qadriyat – voqelikdan muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-ahloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsalar, masalan, erkinlik, tinchlik, adolat, ijtimoiy tenglik, ma’rifat, xaqiqat, yaxshilik, go‘zallik, moddiy va ma’naviy boyliklar, an’ana, urf-odat va boshqalar qadriyat hisoblanadi. Ijtimoiy fanlarning qaysi soxasida qadriyatga doir tadqiqot olib borilgan bo‘lsa, bu tushunchaga shu jihatdan ta’rif berishga intilishgan.

Qadriyat atamasi adabiyotlarda qayd etilganidek, falsafiy tushuncha bo‘lib, u shaxs tomonidan sodir etiluvchi faoliyatning mazmunini ochib berishga xizmat qiladi.

Demak, yuqorida bildirilgan fikrlardan anglanadiki, qadriyat insoniyat hayotining tarkibiy unsurlaridan biri bo‘lib, u moddiy va ma’naviy omillarning ijtimoiy taraqqiyot jarayonidagi ahamiyatliligi insonlar tomonidan qadrlanishini ifoda etadi.

Demak, **qadriyat –** tevarak-atrofdagi narsalarning, kishining jamiyat uchun ijobiy yoki salbiy ahamiyatini ko‘rsatuvchi tushuncha bo‘lib, axloqiy tamoyillar, g‘oyalar, yo‘l-yo‘riqlar va maqsadlarda ifodalangan ana shu tushunchaga baho berish mezoni va usullari hisoblanadi.

Qadriyatga umuminsoniy qadriyatlar – ma’lum bir axloq me’yorlari, ilg‘or, taraqqiyparvar madaniy meroslar kiradi.

Qadriyat – qadr-qimmat ma’nosini anglatib, inson uchun qadrli bo‘lgan barcha narsa va hodisalar (predmet va jarayonlar) majmuidir.

Qadriyatlar faqat o‘tmish uchun qadrli bo‘lmasdan, balki hozirda ham, kelajak taraqqiyotida ham qadrli bo‘lib, ular jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir qiladi, qadriyatlarning muhim bo‘g‘inlaridan biri ma’naviy qadriyatlar sanaladi.

Ma’naviy qadriyatlar o‘z navbatida badiiy, diniy, estetik, falsafiy, axloqiy, ma’rifiy, madaniy qadriyatlar majmuasidir.

Badiiy tasviriy san’at tarixida yuksak nodir asar sifatida tan olingan mukammal san’at asarlari o‘chmas badiiy meros bo‘lib, ular badiiy qadriyatlar hisoblanadi.

Tasviriy san’at asarining badiiy qimmati, uning ushbu jamiyat estetik ideallari, g‘oyalarini o‘zida hissiy mujassamlaganida, gavdalantirganida namoyon bo‘ladi.

Badiiy qadriyatning mazmuni – bu aniq tarixiy, estetik ideal, g‘oya mazmunidagi go‘zallik qonuni bo‘yicha aks ettirilgan va o‘zlashtirilgan haqiqatdir.

Bu shaxsiy-falsafiy anglab yetilgan hayot, atrof-borliqdir; bunda shakl va mazmunning hissiyotga, idrokka maksimal estetik ta’sir ko‘rsatish holatidir.

Asarning estetik mazmuniga uning mavzusi, syujeti, g‘oyasi kiradi. Asarning materialiga butun borliq: davrning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari, moddiy va ma’naviy madaniyat, ishlab chiqarish, turmush, uning geografiyasi, davrlanishi va shu kabi qiyofa va elementlari kiradi.

Boshqacha aytganda, g‘oya - badiiy mazmun, muallif asosiy fikrining to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki qahramonlarning xatti-harakatlarida ifodalanishidir.

Badiiy qadriyatlar chuqur mazmun hamda tarbiyalovchi-undovchi xususiyatga ega. Ular nafaqat go‘zal, chiroyli, balki funksionallidirlar.

Badiiy qadriyatning yuksak darajasiga san’at, birinchi navbatda, rangtasvir kiradi. Tasviriy san’atning **rangtasvir** turi – nodir asarlar toifasiga kiradi hamda yuksak badiiy, takrorlanmas, abadiy, o‘ziga xos mahorat namunalari sanaladi.

Tasviriy san’at asarlari tarixiy hodisalar rivoji, insonning hayotidan biror-bir lahzani, uning ichki dunyosini aks ettirishga qodir. Ular eng muhim, tipik obrazlarni aks ettiradi. Haqiqiy rangtasvir asarlari o‘zining “ichki ovoziga ega bo‘ladi”, u kishilarni, shu jumladan, bo‘lajak o‘qituvchilarni ham o‘ylashga, hayojonlanishga, xulosalar chiqarishga majbur qiladi.

Tasviriy san’atning badiiy qimmatli rangtasvir asarida o‘sha davrning moddiy va ma’naviy qadriyatlari aks ettiriladi. Bu nafaqat ma’lum ijtimoiy masalalarni aks ettiruvchi, shaxsni

rivojlantirish masalasini hal qilish vositasi, balki ma’naviy ehtiyojlarini qanoatlantirish mexanizmi hamdir.

Nodir (< ruscha **shedevr**) asarlar (< fr. **ched-doewre** – namunali asar) – mukammal san’at asari bo‘ladi, qachonki mazmuni badiiy, shakli esa mazmunli bo‘lganida. Buni bo‘lajak o‘qituvchilar uqib olishlari lozim.

Nodir asarlarning ajralib turuvchi xususiyati, unda musavvirning chuqur fikrlashi hamda estetik g‘oyalarining mosligi, shuningdek, ularning san’at asarida gavdalantirilishidadir.

Nodir san’at asariga muallif g‘oyasining yakunlanganligi, ichki uyg‘unlik, mazmun kengligi va yangiligi, hatto badiiy asarning aniq ekspressiv stilistikasi bilan ajralib turishi va disgarmonik hodisalarni aks ettirgan holatda ham unga ichki uyg‘unlikning xos bo‘lishidir.

Nodir san’at asariga g‘aroyib yaxlitlik, qismlarining birligi, individual takrorlanmaslik xosdir. Bu – mazmun va shakl yaxlitligi ekanligi bo‘lg‘usi o‘qituvchilarga bot-bot tushuntirilishi kerak. Bunday asarlar har doim nodir bo‘lgan va takrorlanmas bo‘lib qoladi. Nodir san’at asarlari ko‘plab boshqa iste’dodli asarlardan yuksakligi, hatto noyobligi bilan farqlanadi.(4,399)

Tasviriy san’at - rangtasvirning dunyoga mashhur durdonalarini yaratgan ajoyib musavvirlar – **Rembrandt, Rubens, Leonardo da Vinchi, Titsian** kabilar bilan bo‘lg‘usi o‘qituvchilar oliy ta’limning ikkinchi bosqichidan – Jahon tarixini (o‘rta asrlar davri) tarixini o‘rganish jarayonida tanishib boradilar (maktab kursida ma’lumotlar juda qisqa berilgan.

Nodir asarlar san’atning rivojlanish cho‘qqisi davrida paydo bo‘ladi. Bunday asarlar nafaqat o‘z zamondoshlari, balki keyingi avlodlarga ham badiiy huzur bag‘ishlaydi.(5,9)

Badiiy san’at qadriyatlari to‘g‘risida tasavvurlar uchun o‘lchov-mezon vazifasini meyorlar, namunalar va ko‘rsatkichlar o‘taydi.

Ularni baholash ularning aniq qaysi ijtimoiy-tarixiy munosabatlar tizimiga kirishi hamda baholash mezonlariga qaysi g‘oyalar xizmat qilishiga bog‘liq bo‘ladi. Go‘zallik, yuksaklilik va albatta badiiylik san’at asarini estetik baholashning asosi hisoblanishini bo‘lg‘usi o‘qituvchilar tushunib yetadilar.

Go‘zallik - quvonch, huzur, estetik qoniqish holatini yuzaga keltiruvchi, oliy estetik qimmatga ega mukammallikdir. “Go‘zallik qonunlari bo‘yicha” yaratilgan san’at asarlarida ko‘rkamlikni ko‘ramiz.

Yuksaklik - katta ijobiy ijtimoiy ahamiyatga ega predmetlar va hodisalarning estetik qimmatini ifoda etadi. “Tabiatning ulug‘vor hodisalari, jahonning ijtimoiy-tarixiy o‘zgarishlari, rivojlanish va shaxsiy hayotning keskin burilishlarda insonning ko‘tarinki faoliyati ob’ektiv yuksaklik manbalari hisoblanadi”. Bu “qandaydir, kundalik hayotiy hodisalar qatoriga kirmaydigan, o‘ziga xos, hayratlanish yoki quvonch hissini uyg‘otuvchi holatlardir”

San’atda badiiylik – bu uning go‘zallik darajasi, uning estetik qimmati o‘lchamidir. Hayotdagi go‘zallik san’atdagi go‘zallikka hamohangdir .

Badiiylik – asar mazmunining shakliga mosligidir, bunga musavvirning iste’dodi va mahorati orqali erishiladi – asarning estetik qimmati mana shundan iborat. Asosiysi - tasvirlanayotgan borliqqa, uning estetik ahamiyatiga rassomning haqqoniy va g‘oyaviy-emotsional munosabati hisoblanadi.

“Nodir asar” (shedevr) tushunchasi hamda yuksak badiiy qadriyatlar bo‘yicha muallif tushunchasi asosida bo‘lajak o‘qituvchilarda Uyg‘onish davri (Renessans) tasviriy san’ati badiiy qadriyatlarga qiziqishni rivojlantirish maqsadida rangtasvir asarlarini tanlab olishga umumiy talablarni ishlab chiqamiz (emotsional imkoniyatlari, ichki ekspressiya; estetika):

g‘oya mazmundorligi, chuqurligi, uning yakunlanganligi;

haqqoniyligi, samimiyligi;

ichki uyg‘unligi; individual betakrorligi;

g‘oya, mazmun, shakl yaxlitligi;

ajoyibligi, nodirligi, o‘ziga xosligi, yakkaligi, boshqalarga o‘xshamasligi, yuksak badiiy mahorat namunasi ekanligi;

ma’naviyligi - emotsional, estetik, badiiy huzur bag‘ishlashga qodirligi;

o‘ylashga, fikrlashga, xulosalar chiqarishga majbur etishi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarga badiiy qadriyatlarga nafaqat badiiy-estetik, balki musavvirlarning dunyoqarashlarini badiiy-obrazli gavdalantirishlari nuqtai nazaridan qarash kerakligini uqtirib borilish lozim.

Tasviriy san’at asarlari – rangtasvirni idrok etish algoritmiga tahlil qilishning quyidagi asosiy komponentlari kiritiladi (talabalarning asarni birinchi bor, mustaqil, ixtiyoriy-emotsional idrok etish sharoitlarida):

Badiiy qadriyatlar, ularning xususiyatlari, belgilari, qimmatli mazmuni, emotsional-hissiy idrok etish, albatta, bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy fikr va mulohaza bilan malakali badiiy-estetik, mantiqiy-tahliliy tushuntira bilishni taqozo qiladi.

Talabalarda jahon tarixiga qiziqishni rivojlantirish maqsadlarida uni o‘rganish jarayonida taklif etiladigan badiiy qadriyatlar mohiyatining ochib berilishi, alohida belgilari bo‘yicha o‘rganib chiqilishi, ularning o‘ziga xos mazmuni taqdim etilishi kerak.

Albatta, bo‘lajak o‘qituvchilarning asarni mantiqiy bilish, tahliliy o‘rganish, uning g‘oyaviy mazmunini hissiyotli-estetik idrok etish, badiiy idrok etilayotgan asarga qadriyatli munosabatda bo‘lishini talab etiladi.

Shunday qilib, bo‘lajak o‘qituvchilar “uyg‘onish” atamasi tarixini, Uyg‘onish davri umumiy xususiyatlarini, alohida mamlakatlarda Uyg‘onish davri tarixiy sharoitlari va xususiyatlarini bilib oladilar, falsafa, tabiatshunoslik, texnika, pedagogika, ma’rifatparvarlik, adabiyot, tasviriy san’at va arxitektura, teatr va musiqadan xabardor bo‘ladilar, umumiy tasavvurga ega bo‘ladilar.

Ammo bularning barchasi talabalarda jahon badiiy qadriyatlariga barqaror qiziqishni faollashtirmaydi, bunday holatdan nafaqat bo‘lajak o‘qituvchilarning ma’naviy dunyosi, balki pedagog kadrlarni tayyorlashning sifati ham zarar ko‘radi.

Yaqinda o‘quvchi bo‘lgan talabalar O‘rta asrlar badiiy madaniyati, badiiy qadriyatlari to‘g‘risida juda kam axborotga egalar: maktabda jahon tarixining O‘rta asrlar Uyg‘onish davri qisqa bayon etiladi va asosan qudratli imperiyalar, ularning hukmdorlari, mamlakatlar va xalqlar taqdiri o‘rganiladi (umumta’lim maktablarida “Jahon tarixi”, “O‘rta asr davri”).

Demak, oliy ta’lim muassasalarining “O‘rta asrlar tarixi” kursida o‘rganilayotgan mamlakatlar badiiy madaniyatini o‘rganishga, xususan, Uyg‘onish davri jahon badiiy qadriyatlarini ochib beruvchi mavzularga e’tiborni kuchaytirish zarur. Talabalarning badiiy qadriyatlarga qiziqishlarini faollashtirishda albatta ularning maktabda tasviriy san’at darslarida egallagan bilimlarini hisobga olish orqali amalga oshiriladi.

Respublikamizda tasviriy san’at bo‘yicha maktab o‘quv dasturlari, nazariy va amaliy xususiyatdagi o‘quv materiallari modernizatsiyalashtirilmoqda, shuningdek, ushbu fan bo‘yicha darsliklar va qo‘llanmalar nashr etilmoqda. Pedagogik ma’lumotli tasviriy san’at o‘qituvchi-rassomlari borgan sari ko‘proq uchramoqda. Ta’limning o‘rta bo‘g‘inida tasviriy san’at, asosan, malakali mutaxassislar tomonidan o‘qitilmoqda. Masalan, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfida tasviriy san’atning (rangtasvir) asosiy qonunlarini o‘zlashtirish bo‘yicha asosiy o‘quv topshiriqlari bilan bir qatorda Yevropa, O‘rta Osiyo, Sharq san’ati, shu jumladan, rangtasvir san’atiga badiiy qadriyatlar sifatida idrok etishga katta e’tibor qaratilmoqda. San’atni sintez qilish, misol uchun, kitoblarni bezatish san’ati o‘rganilmoqda.

Kelajakda “Tasviriy san’at va jahon badiiy madaniyati” integratsiyalashtirilgan (umumlashtirilgan) fanini yaratish ko‘zda tutilmoqda (9-sinfgacha). O‘quvchilarning tasviriy san’atni o‘rganish jarayonlarini kuzatib, tarbiyalanuvchilarga badiiy madaniyat tarixi, san’atdagi uslublar va yo‘nalishlar o‘rgatilishi, algoritmlashtirilgan metodlar yordamida rangtasvir asarlarini o‘zlashtirishlarini (ko‘rsatmalar, yo‘nalishlar, ko‘rinishlar, lekin afsuski hamma vaqt ham malakali emas) aniqladik. Ammo ushbu amaliyot ham takomillashtirilmayapti, ayniqsa, o‘rganilayotgan asarning (rangtasvir) tarixiy mazmunini yoritishda.

Shuningdek, maktabda musavvirlar asarlarini “idrok etish mexanizmi” go‘yo mavjuddek, hatto rangtasvir asarining ichki mazmunini badiiy idrok etish, badiiy obrazni tushunish namunalari kuzatiladi. O‘quvchilar kartinaning g‘oyaviy mazmunini aniqlay oladilar, uning mantiqiy-tahliliy badiiy-estetik tahlilini berishga harakat qiladilar.

Shunday qilib, maktablarda badiiy madaniyat, nodir jahon rangtasvir asarlarini chuqurroq, yanada kengroq tarixiy asosda o‘rganishga qiziqish bor, lekin ma’lum tarixiy asos faqatgina oliy talim tizimida beriladi.

O‘rta asrlar Buyuk Uyg‘onish davrining oxirlari tarixini o‘rganish jarayonida tarixiy-madaniy materialdan foydalanishga ijodiy yondashmoq kerak. Talabalarning qiziqishlarini oshirish uchun mashhur musavvirlarning nodir asarlarini ko‘rsatish hamda ma’lum pedagogik tizim, pedagogik asoslar yordamida ularning mustaqil bilim olishlariga ko‘maklashish hamda ularning Uyg‘onish davri jahon badiiy qadriyatlariga barqaror, doimiy hamda chuqur qiziqishni rivojlantirish uchun yanada qulay sharoit yaratish lozim.

Xulosa:

Badiiy qadriyatlar har bir xalqning ko‘p asrlik tarixiy tajribasi, ma’naviy dunyosi, estetik tafakkuri va milliy o‘zligini o‘zida mujassam etgan muhim ma’naviy boyliklardan biridir. Ular xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, an’analari, dunyoqarashi va tarixiy xotirasini avloddan avlodga yetkazishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shu jihatdan badiiy qadriyatlarni o‘rganish va asrab-avaylash nafaqat madaniy, balki tarixiy va tarbiyaviy ahamiyatga ham ega.

Tadqiqot davomida adabiyot, tasviriy san’at, me’morchilik, musiqa, xalq amaliy san’ati va boshqa ijodiy meros namunalari milliy madaniyatning tarkibiy qismlari sifatida tahlil qilindi. Ularning har biri xalqning o‘ziga xos tarixiy-madaniy taraqqiyotini aks ettirishi bilan birga, insoniyat uchun umumiy bo‘lgan go‘zallik, ezgulik, insonparvarlik, adolat va ma’naviy kamolot kabi qadriyatlarni ham ifodalashi aniqlandi.

Badiiy qadriyatlarning milliy boylik sifatidagi ahamiyati, avvalo, ularning milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani mustahkamlash va yosh avlodni ma’naviy-estetik jihatdan tarbiyalashdagi o‘rnida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, yuksak badiiy qiymatga ega bo‘lgan milliy meros namunalari muayyan xalq doirasidan chiqib, jahon madaniyatining umumiy boyligiga aylanishi mumkin. Bu holat milliylik va umuminsoniylikning o‘zaro uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Globallashuv sharoitida milliy badiiy merosni asrab-avaylash, ilmiy jihatdan tadqiq etish, raqamlashtirish, keng targ‘ib qilish va yosh avlodga yetkazish muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, tarixiy va badiiy merosning asl mazmunini saqlagan holda uni zamonaviy ta’lim va madaniy jarayonlarga tatbiq etish uning davomiyligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, badiiy qadriyatlarni **milliy boylik va jahon durdonalari** sifatida o‘rganish milliy madaniyatning o‘ziga xosligini anglash bilan bir qatorda, turli xalqlar o‘rtasidagi madaniy muloqot va o‘zaro hurmatni rivojlantirish uchun ham muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Milliy badiiy merosni asrab-avaylash va uni jahon madaniy makonida munosib namoyon etish kelajak avlodlarning tarixiy xotirasi va ma’naviy taraqqiyotini ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Mirkomilov B. Talabalarda badiiy qadriyatlarga qiziqishni shakllantirish. T., 2010, 9 bet. (Formation of Students’ Interest in Artistic Values. – Tashkent, 2010, 9 p.)

2. Mirkomilov B. Jahon tarixi (Yevropa va Osiyo davlatlari o‘rta asrlarda). Jizzax: Darslik, 2026. JDRU, 529 bet. (World History: European and Asian States in the Middle Ages. Jizzakh: Textbook, 2026. JDRU, 529 p.)

3. Inomova M. O. Oilada bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasi. – Toshkent: TDPU, 1999, 38 bet. (Spiritual and Moral Education of Child

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon va qarorlari: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-yanvardagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-son qarori; “Kino san’ati va sanoatini qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlar.

5. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navro‘z, 2018. (Badiiy qadriyat, estetik idrok va adabiy asarning milliy-ma'naviy ahamiyati haqida).

6. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent: Fan, 2004.

7. Valixo‘jayev B. O‘zbek adabiyotshunosligi tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1993.

8. To‘xliyev B. Badiiy adabiyot va milliy qadriyatlar uyg‘unligi. // “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali, 2021. – 3-son. – B. 12–18.

9. Yusupov M. Jahon adabiyoti durdonalari va milliy tarjima maktabi. // “Jahon adabiyoti” jurnali, 2020. – 5-son. – B. 140–145.

10. Rahimova Z. Badiiy qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi o‘rni. // “Ilm-fan va ta’lim” ilmiy jurnali. – 2023. – № 4. – B. 112–115.

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000